

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov

O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy 6

G.M.Oripova

Aylor ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri 9

M.A.Jo'rayeva

Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri 13

G.Muhammadjonova

Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok 17

И.А.Эшонкулов

Tavsiysi mushahhasi tazkiraҳои Ҳашмати Бухорай 21

B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova

“Bobotog” essesida peyzaj: flora tasvirida badiiyilik 28

И.А.Эшонкулов, З.П.Аҳмадҷонова

Ситоиши хирад ва хирадгустарй дар “Шоҳнома”-и Ҳаким Фирдавсий 34

D.T.Musayeva

Elizabet Gaskell ijodiga nazar 39

Н.Н.Қаюмов

Muammo shinoxti sanъati tashxis dар поэтикан мумтози форсу тоҷик 42

Sh.T.Ibragimov

“Babur the tiger” romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi 47

J.T.Ibragimov

“Qutadg'u bilig” istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqr mulohaza 55

A.A.Akbarov

Vatanga muhabbatning lirik ifodasi 61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova

Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun 66

Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова

Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок 71

Z.V.Alimova

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida 81

A.B.Uralov

Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar 86

Z.A.Davlataliyeva

Ingliz tili darslarida talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari 90

Н.А.Абдуллаева

Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках 95

Н.А.Отахонова

Проблемы общей теории и классификации лингвокультурой 100

B.B.G'apporov

Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi 106

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili 112

N.Fidan

Ellipsis in English text linguistics 115

M.O.Qulmamatova

Ingliz va o'zbek tillaridagi “boylik/wealth va kambag'allik/poverty” konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari 120

N.X.Boboqulova

Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili 124



UO'K: 811.81.42

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI "BOYLIK/WEALTH VA KAMBAG'ALLIK/POVERTY"
KONSEPTLARINING O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHATLARI**

**СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ПОНЯТИЙ «БОГАТСТВО/WEALTH» И «БЕДНОСТЬ/POVERTY»
В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN THE CONCEPTS OF “WEALTH” AND
“POVERTY” IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

Qulmamatova Muattar Otobek qizi 
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilshunosligi va madaniyatshunosligi misolida “boylik va kambag'allik” tushunchalarini ko'rib chiqiladi. “Boylik va kambag'allik” tushunchasi sotsial-madaniy tushunchadir; u kishilarning nutqiy xulq-atvorida qayd etiladi, turli tipdagi lisoniy birliklarda namoyon bo'ladi va milliy o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqotning dolzarbliji o'zbek va ingliz madaniyatlarining asosiy tushunchalaridan biri sifatida “boylik va kambag'allik” konseptlari assotsiativ eksperimentda tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются концепты «богатство и бедность» на примере английского и узбекского языкоznания и культурологии. Концепты «богатство и бедность» являются социально-культурными понятиями, которые отражаются в речевом поведении людей, проявляются в различных типах языковых единиц и выделяются национальной специфичностью. Актуальность данного исследования заключается в анализе концептов «богатство и бедность» как одних из основных понятий узбекской и английской культур в ассоциативном эксперименте.

Abstract

This article explores the concepts of «wealth and poverty» through the lens of English and Uzbek linguistics and cultural studies. The concepts of «wealth and poverty» are socio-cultural phenomena; they are reflected in people's speech behavior, manifested in various types of linguistic units, and distinguished by national specificity. The relevance of this study lies in analyzing the concepts of «wealth and poverty» as key notions in Uzbek and English cultures through an associative experiment.

Kalit so'zlar: assotsiativ eksperiment, psixolingvistik, lingvokulturologiya, konsept, madaniyat, kognitiv tahlil, ma'naviyat, lingvokulturologik xususiyat, til, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyat, moddiy boylik, ma'naviy boylik va kambag'allik

Ключевые слова: ассоциативный эксперимент, психолингвистика, лингвокультуры, концепт, культура, когнитивный анализ, мораль, лингвокультурные особенности, язык, языкоznание, культурология, лингвокультурология, материальное богатство, духовное богатство и бедность

Key words: associative experiment, psycholinguistics, linguoculturology, concept, culture, cognitive analysis, morality, linguocultural features, language, linguistics, cultural studies, linguocultural studies, material wealth, spiritual wealth and poverty.

KIRISH

Lingvomadaniyatshunoslik fani til va madaniyat o'tasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib kelmoqda. Til va madaniyatning bog'liqligi haqidagi muammoning echimi asosan, turli xil madaniyat egalarining borliqni qanday tasavvur qilishi borasidagi umumiyl o'ziga xos tomonlarini izlashdadir. Bunday tadqiqotlarning mavzularidan biri genetik jihatdan yaqin bo'limgan tillardagi materiallar asosida konseptlarni tahlil qilishdir. Bu tahlil turli xalqlarning mentalitetidagi etnik xususiyatlarni topishga yordam beradi. Konsept muammosi lingvomadaniyatshunoslik fanining markaziy tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi. Bunda til va madaniyat o'tasidagi munosabatlar o'rganiladi va tadqiqot markazida shaxs turadi. Tilshunoslikning bu ikki aspekti, ya'ni kognitiv tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalari bo'yicha bilimlarning antroposentrik paradigmasiga tegishli bo'lgani sababli "boylik" va "kambag'allik" konseptlarini o'rganishimiz mumkin.

TILSHUNOSLIK

Yigirmanchi asrning oxirida tilshunoslikda paydo bo'lgan konseptual tadqiqot yo'nalishi turli xil kognitiv shakllanishlar tuzilmalarini har tomonlama o'rganishga intiladi. Konseptning strukturasini qayta yaratish kognitiv xususiyatlarning to'liq majmuini ularni bosqichma-bosqich o'rganish orqali aniqlashni o'z ichiga oladi. Nutq faoliyatini eksperiment asosida o'rganish qator afzalliklarga ega. Tayyor matndagi oddiy nutqni an'anaviy metodlar asosida o'rganayotgan tadqiqotchi passiv kuzatuvchi rolini bajarsa, eksperiment asosida o'rganishda u faoliyatning faol qatnashuvchisiga aylanadi, eksperiment jarayoniga va xarakteriga ta'sir qila oladi. Tadqiqot jarayonida biz o'zbek tilida "boylik" leksemasining etimologik kelib chiqishiga e'tibor qaratdik. Natijada ushbu leksemalar bilan bog'liq juda ko'plab qiziqarli ma'lumotlar borligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boylit tushunchasi allaqachon tilshunoslikning tadqiqot obyekti bo'lgan. Masalan, E. V. Klementyeva boylik tushunchasini rus va ingliz tillarida kognitiv-pragmatik jihatdan tavsiflaydi. N. S. Makeeva rus tilidagi boylik tushunchasini ispan tili fonida tahlil qiladi [2]. G. R. Ijboyeva va A. S. Myrzagalieva rus maqollarida boylik tushunchasiga murojaat qilishadi. Boylik tushunchasini o'rganish uchun Sh. K. Fozilova ingliz tilining maqol va matallari, shuningdek, ingliz frazeologik birliklariga murojaat qiladi. Ushbu tadqiqotchi tomonidan boylik tushunchasi uchta til madaniyati: ingliz, rus va tojik tillari asosida taqqoslanadi. N. N. Panchenko va F. V. Boshtan ingliz va rus madaniyatidagi kognitiv xususiyatlarni taqqoslab, boylik subkonsepsiyalardan biri – pulga murojaat qiladilar [1]. Ayrim lingvistik asarlar antonim tushunchalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. S. B. Kutsy boylik va qashshoqlik haqidagi rus va ingliz tilidagi tushunchalarning lingvistik va madaniy o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadi.

"Boylit va kambag'allik" konseptiga E. Begmatov, A. Madvaliyevlar tahriri ostida chiqarilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham alohida ahamiyat qaratilgan. "Boylit va kambag'allik" otlari o'z ichiga turli semantik til ma'nolarini olib, ko'p sonli so'zlar oilasining semantik markazi hisoblanadi. "Boylit" so'zi lug'atdagi ta'rifiqa ko'ra "boy bo'lish, boy mavqe, mol-mulkning yig'indisi, majmui, mo'llik" degan ma'nolarni anglatadi [6]. E. Begmatovning fikriga ko'ra, kambag'allik leksemasi esa – hayotiy, tirikchilikka zarur narsalarning etishmaslik holati hisoblanadi.

Adam Smit, o'zining «Millatlar boyligi» asarida boylikni «jamiatning er va mehnat mahsuloti» deb ta'riflagan. Bu «mahsulot» eng oddiy shaklda, inson ehtiyojlari va foydalari uchun xizmat qiladigan tovar yoki xizmatdir, – degan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boylit va kambag'allik, iqtisodiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan insoniyat tarixida doimiy ravishda muhokama qilinayotgan tushunchalardir. Har bir jamiatda bu tushunchalar turli yo'llar bilan ifodalanadi, lekin har ikkala holat ham hayotning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Ingliz va o'zbeklarning boylik va kambag'allik haqidagi fikrlari o'rtasida o'xshashliklar va farqlar mavjud, bu esa madaniy, tarixiy va iqtisodiy kontekstlarga bog'liqdir [4; 75-b.].

Ingliz tilida boylik ko'pincha iqtisodiy o'sish, resurslarning samarali taqsimlanishi va shaxsiy erkinlik bilan bog'lanadi. Adam Smitning «The Wealth of Nations» asaridagi boylik ta'rifi – jamiatning er va mehnat mahsuloti – iqtisodiy faoliyat, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayoniga asoslanadi. Ingliz jamiatida boylik ko'pincha erkin bozor, raqobat va innovatsiyalar bilan ta'riflanadi. Kambag'allik esa o'z navbatida ko'pincha imtiyozlar va imkoniyatlar cheklanganligi, mehnat bozoriga kirish qiyinligi va ijtimoiy adolatsizlik bilan bog'lanadi. Kambag'allikni engish uchun iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish, ta'lim va kasb-hunar malakalarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi [4; 174-b.].

O'zbek madaniyatida boylik, odatda, oilaning farovonligi, er va resurslarga egalik qilish, hamda jamiatda yuqori maqomga ega bo'lish bilan bog'lanadi. O'zbeklar boylikni mehr-oqibat, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy izzat-hurmat bilan birga tushunadilar. Kambag'allik esa ko'proq oilaning moliyaviy qiyinchiliklari, ijtimoiy ta'sirlar va erga egalik qilishdagi cheklolvar bilan bog'lanadi [5; 132-b.].

Assotsiativ eksperimentning o'tkazilish tartibi. Tajriba o'tkaziluvchilarga yoki respondentlarga muayyan stimul so'zlarning ro'yxati beriladi va ulardan xayollariga birinchi kelgan reaksiya so'zlarni aytish so'raladi. Odatda respondentga 100 ga yaqin so'z beriladi va ularga 7-10 daqiqa ichida javob berish so'raladi [1; 17-b.].

Eksperimentning maqsadi: so'zlar orasidagi assotsiativ munosabatlarning joylashuvi va tahlili, ularning obyektiv qonuniyatlarga asoslanganligini aniqlash.

Eksperiment sharti: auditoriyaga anketa ko'rinishidagi biror mavzuga oid stimul-so'zlar ro'yxatini o'z ichiga olgan stimul material tarqatiladi. Respondentlar stimul-so'zni o'qishi bilan xayoliga kelgan birinchi reaksiya-so'zni stimul-so'zning ro'parasiga yozadilar.

Ingliz va o'zbek lisoniy ongida "boylik/wealth" konseptining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda psixolingvistik eksperimentdan foydalandik. Yuqorida ta'kidlangan konseptlarning nominativ maydonini aniqlash maqsadida til sohiblari (ingliz va o'zbek shaxslar) bilan assotsiativ eksperiment o'tkazildi va stimul so'zga olingan reaksiyalarning kognitiv tahlili amalga oshirildi [4; 175-b.].

Moddiy boyliklar	Reaksiyalar soni	Ma'naviy boyliklar	Reaksiyalar soni
Pul	30	Tinchlik	35
Uy	28	Ota-onा	34
Mashina	17	Farzand	33
Xazina	15	Sog'lik	32
Qimmatbaho buyumlar	10	Xotirjamlik	20
Qimmatbaxo toshlar	10	Bilim	19
Tilla	9	Bola kulgusi	15
Ko'chmas mulk	8	Ona	14
Telefon	8	Sevgi	13
10. Antikvar narsalar	6	Muvaffaqiyatga erishish	12

Ingliz tilida so'zlashuvchi respondentlarning "wealth" (boylik) so'ziga munosabati tematik va kontekstual xilma-xillik bilan ajralib turadi.

Moddiy boyliklar (Material wealth)	Reaksiyalar soni	Ma'naviy boyliklar (Spiritual wealth)	Reaksiyalar soni
1. Money	28	1. authority	18
2. cash	26	2. prosperity	16
3. gold	25	3. security	15
4. check	22	4. worth	14
5. corruption	20	5. comfort	14
6. chips	18	6. bounty	11
7. capital	11	7. luxury	10
8. bill	9	8. big break	8
9. cash	8	9. influence	8
10. coinage	8	10. dominance	6
11. dividend	7	11. superiority	7
12. coin	6	12. achievement	5
13. bread	5	13. fortune	4
14. banknote	3	14. advantage	3

XULOSA

Har bir millat madaniyatidan, mentalitetidan kelib chiqqan holda leksemalarni tushunadi va tahlil qiladi. Yuqoridagi ma'lumotlarni tahliliy ko'rib chiqish o'rganilayotgan tushunchaning bir qator qo'shimcha kognitiv xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Shunday qilib, boylik turli xil yuksak axloqiy fazilatlarni ifodalashi mumkin. Xususan, boylik tushunchasiga bilimga chanqoqlik, farzandlar kamoloti, qarindosh va do'stlarning qo'llab-quvvatlashi degan ta'riflar berildi. Boylik va kambag'allik tushunchalari ingliz va o'zbek madaniyatlarida turlicha ifodalanishi mumkin, lekin har ikkala jamiyatda ham ushbu tushuncha jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

TILSHUNOSLIK

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Burman A. A. The concept sphere of “poverty - wealth” in the Anglo-American linguistic culture. Cand. Philol. Sci. Diss. – Novosibirsk. 2021. – 156 p.
2. Yurin M. E. Poverty and wealth in modern English society: changes in social structure and their representation in the media. Cand. Sociol. Sci. Diss. – Kazan. 2020. – 172 p.
3. Mendesheva M. M. First signs of the concepts of wealth and wealth in the Russian and English language pictures of the world. SibScript, 23 (4 (88)). 2021. – P. 1060-1066
4. Getman A. A. Concepts Wealth and Poverty in the collective portrait of the rich and the poor. European science and technology: materials of the VII Intern. Research and practice Conf., Munich, 23-24 Apr 2014. Waldkraiburg: Vela Verlag, 2014, vol. II. – P.174-177.